

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

GENERAL CONDITIONS, CONTENT, AND CLASSIFICATION OF PROOF

Djalilov Javokhir Abdumajitovich

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Head of the Organizational Management Department

E-mail: info@akadmvd.uz

Abstract. This article provides a legal analysis of the concept of proof in criminal proceedings and the theoretical foundations of this institution. The author emphasizes that by thoroughly mastering the concepts and principles of proof, one must acquire the skill of correctly using evidence in criminal proceedings.

Keywords: proof, crime, criminal punishment, defense counsel, pretrial investigation, inquiry, and investigative bodies.

ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI

Djalilov Javoxir Abdumajitovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Tashkiliy boshqarma boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat-protsessida isbot qilishning tushunchasi, isbot qilish institutining nazariy asoslari huquqiy tahlil qilingan. Muallif Isbot qilishga doir tushuncha va tamoyillarni puxta o'zlashtirish orqali, jinoyat protsessida dalillardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishni ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: isbot qilish jinoyat, jinoiy jazo, himoyachi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N77>

Kirish. Jinoyat-protsessual huquqida **isbot qilish** – bu jinoyat ishi bo'yicha **haqiqatni bilish jarayoni bo'lib**, uning mazmunini ish uchun muhim ahamiyatga ega holatlar yuzasidan haqiqiy dalillarni **to'plash, tekshirish va baholash** tashkil etadi[1].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 85-moddasida isbot qilish **“ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat jarayon”** deb ta'riflangan[2]. Demak, isbot qilishning asosiy maqsadi – jinoyat ishini hal etish uchun zarur barcha faktik holatlarni aniqlash, ya'ni **obyektiv haqiqatga** erishishdir.

Isbot qilish tushunchasining mazmunini to'g'ri va to'liq anglash uchun uning lug'aviy ma'nosini bilib olish maqsadga muvofiq. O'zbek tilining izohli lug'atida isbot qilish *“fikr, da'vo, faraz va shu kabilarning to'g'riligini yoki bo'lib o'tgan voqea-hodisaning chinligini dalil, hujjat bilan tasdiqlash”, “biror qoida yoki da'voning to'g'riligini boshqa ma'lum qoidalar asosida mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tasdiqlash, isbotlash”* [3] kabi ma'nolarda tushunilishi qayd etilgan.

Isbot qilish faoliyati jinoyat protsessining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Surishtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud isbotlash vazifasini bajaruvchi asosiy subyektlar hisoblanadi[2]. Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddasiga ko'ra, isbot qilish **ishtirokchilari** qatoriga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va suddan tashqari, himoyachi va jamoat himoyachisi, ayblovchi va jamoat ayblovchisi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilar ham kiradi[2]. Shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va javobgar va ularning vakillari ham o'z manfaatlari doirasida isbotlash jarayonida qatnashish huquqiga ega. Isbot qilishda guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar kabi boshqa shaxslar ham ishtirok etib, **dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarini** amalga oshiradilar[2]. Ko'rinib turibdiki, jinoyat ishini ko'rishda haqiqatni aniqlash – **kollegial jarayon** bo'lib, unda taraflar va protsess ishtirokchilarining barchasi muayyan rol va huquqlarga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. B.A.Mirenskiy isbotlash tushunchasiga butun jinoyat-protsessual faoliyatga singib ketgan va jinoyat protsessi vazifalarining ish bo'yicha haqiqatni aniqlash orqali amalga oshirilishini ta'minlaydigan murakkab jarayon deb ta'rif berib, isbot qilishning bosqichlari qatoriga dalillarni aniqlashni ham kiritadi[4].

N.V.Palchikova[5], N.P.Sareva[6], Yu.V.Shelegov[7], S.V.Kornakova[8] lar tomonidan ilgari surilgan isbot qilish tushunchasi va bosqichlari amaldagi JPKdagi talqinga o'xshash bo'lib, ularning ta'kidlashicha, isbot qilish dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat.

B.A.Azizxodjayev isbot qilishning strukturasi shakllantirishga harakat qilgan, uning fikriga ko'ra, isbot qilish tergov tasmollarini ilgari surish va ularni dinamik rivojlantirish, har bir tasmolga oid dalillarni to'plash, to'plangan dalillarni o'rganish (tekshirish), baholash va ish bo'yicha asoslantirilgan protsessual qarorlar qabul qilishdan iborat[27]. Shunga yaqin fikrlarni D.M.Mirazov, I.E.Xojanazarov va Sh.N.Berdiyarovlar ham bildirganlar. Ularga ko'ra isbot qilish tergov tasmollarini ilgari surish, dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lgan jarayondir[9].

Muhokama. Isbot qilish jarayonida **dalil** tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. JPKning 81-moddasida ish bo'yicha ahamiyatga ega har qanday faktik ma'lumotlar dalil sifatida e'tirof etilishi hamda bunday ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinishi mumkinligi qayd etilgan: **guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko'rsatuvlari, mutaxassis, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, hujjatlar** va boshqalar[10]. Ushbu dalillar vositasida jinoyat ishi doirasida tekshirilishi lozim bo'lgan holatlar (jinoyatning sodir etilgani, kim tomonidan sodir etilgani, ayblilik darajasi, oqibatlari, engillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar va bosh.) aniqlanadi. Jumladan, JPKning 82-moddasi jinoyatda ayblash va hukm chiqarish uchun asos bo'ladigan holatlarni, 83-moddasi reabilitatsiya (oqlov) uchun asos bo'ladigan holatlarni, 84-moddasi esa ayblilik masalasi hal qilinmay turib ishni tugatish uchun asos bo'luvchi holatlarni belgilab bergan[11]. Bu normalar mohiyatan **isbotlash predmetini**, ya'ni aynan qaysi holatlar isbotlanishi lozimligini ko'rsatadi. Masalan, har bir jinoyat ishi bo'yicha quyidagilar isbot qilinishi kerak:

- jinoyat hodisasi (voqea, sodir bo'lish vaqti, joyi, usuli va boshqalar);
- ayblanuvchining ushbu hodisaga aloqadorligi (aybi, qasdi yoki ehtiyotsizligi);
- aybdorning shaxsini tavsiflovchi holatlar;
- jabrlanuvchiga etkazilgan zarar miqdori va xususiyati;
- javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki engillashtiruvchi holatlar va hokazolar[12].

Isbot qilish **mavzusi** (predmeti) tarkibiga kiruvchi ushbu holatlarni ishonchli dalillar bilan tasdiqlash lozim. Shu bois, tergov va sud jarayonida topilgan har bir dalil ushbu savollarga javob berishga xizmat qilmog'i darkor. Masalan, qotillik jinoyati bo'yicha isbotlash predmeti doirasida: hodisaning rostdan ham sodir bo'lgani, marhumning o'lim sababi, gumon qilinuvchining qilmishga aloqadorligi, jinoyat quroli, jinoyat sodir etish motivi, aybni og'irlashtiruvchi holatlar (masalan, shafqatsizlik bilan sodir etilganligi) yoki engillashtiruvchi holatlar (masalan, zaruriy mudofaa holatida sodir bo'lgani) va boshqalar aniqlanishi zarur. Buning uchun tergov davomida dalillar yig'iladi, guvohlar so'roq qilinadi, ashyoviy dalillar (masalan, qurol-yarog', izlar) aniqlanadi, ekspertiza o'tkaziladi va hokazo. Shundan so'ng mazkur dalillar har tomonlama tekshirilib, sudda ularning haqiqiyliги tahlil etiladi va huquqiy baho beriladi.

Isbot qilish jarayonida **haqiqat** prinsipi muhim o'rin tutadi. Jinoyat-protsessual qonunchilik tergov va sud organlaridan ish bo'yicha **haqiqatni to'liq, har tomonlama va obyektiv ravishda aniqlashni** talab qiladi. Shu maqsadda qonun dalillarni **erkin baholash** prinsipini ham nazarda tutgan: ya'ni sud va tergov organlari dalillarning ishonchliligi va ularning ishga aloqadorligini o'z ichki ishonchiga ko'ra, qonun va vijdon amriga muvofiq baholaydi; hech qanday dalil oldindan belgilangan kuchga ega emas (JPK 95-moddasi) [13]. Masalan, faqat ayblanuvchi ko'rsatuviga yoki faqat guvohlarning so'zlariga asoslanib hukm chiqarib bo'lmaydi, barcha dalillar birgalikda tahlil qilinishi, bir-birini tasdiqlashi lozim. Aks holda, ishning holatlari to'liq isbotlandi deb hisoblanmaydi.

Mamlakatimizda jinoyat-protsessual munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishda shaxs huquq va erkinliklarini cheklash yoki buzish amaliyotiga barham berish[14] borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyat-protsessida tergovga qadar tekshiruv materiallari, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va boshqa ishtirokchilarning ko'rsatmalari, ekspertiza xulosalari, surishtiruv, tergov harakatlari natijalarini rasmiylashtirish natijasida shakllangan bayonnomalar ish yuzasidan olingan audio, video va fotomateriallar hamda boshqa ish uchun muhim dalillar isbot qilishning vositalari hisoblanadi.

Isbotlash majburiyati surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida – surishtiruvchi, tergovchi va prokurorga, sud bosqichida esa – sud organlari zimmasiga yuklatiladi. Ayblanuvchi o'z aybsizligini isbotlashga majbur emasligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda jinoyat protsessual qonunchiligimizda o'z aksini topgan.

Isbot qilish faqat **qonunga muvofiq yo'llar bilan yig'ilgan, ishonchli, haqiqatga to'g'ri keladigan dalillar** orqali amalga oshirilishi kerak. Qonunga zid ravishda olingan dalillar maqbul dalil hisoblanmaydi.

Isbot qilish – jinoyat protsessining asosiy negizi bo'lib, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida hamda adolatli sudlovni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayonda faqatgina ishonchli va qonuniy dalillar asosida qaror qabul qilinadi.

Jinoyat protsessida isbot qilish o'z ichiga **dalillarni to'plash, tekshirish va baholash** bosqichlarini qamrab oladi.

Jinoyat protsessida dalillarni to'plash isbot qilish jarayonining boshlang'ich va muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Dalillarni to'plash – jinoyat ishi yuzasidan ahamiyatga ega ma'lumotlarni (faktlarni) qonuniy yo'llar orqali olish, qayd etish va rasmiylashtirish faoliyati.

Mazkur faoliyat faqat **protsessual huquqqa muvofiq** va **vakolatli organlar** tomonidan amalga oshiriladi. Dalillar faqat qonuniy tartibda olingan bo'lsa, ular ishda qonuniy isbot vositasi sifatida tan olinadi (*JPK 87-modda*). Agar dalil qonun buzilgan holda olingan bo'lsa (masalan, sud ruxsatisiz tintuv o'tkazilsa), u haqiqiy dalil hisoblanmaydi va sud tomonidan rad etiladi (*JPK 95¹-modda*). Dalillarni to'plashdan maqsad jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligini, kim tomonidan, qanday holatlarda sodir etilganini **isbotlash** yoki **rad etish** uchun asos yaratishdir.

Dalillarni tekshirish isbot qilish jarayonidagi navbatdagi bosqich bo'lib, dalillar faqat to'planishi bilan cheklanmaydi, balki ular **haqiqiyligi, ishonchliligi** va **muhimligi** nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Dalillarni tekshirish – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan **to'plangan dalillarning haqiqatga mos kelishi, ishonchliligi** va **boshqa dalillar bilan mutanosibligini aniqlash** jarayoni.

Dalillar **ularning manbasini baholash, oldingi dalillar bilan solishtirish, qayta tergov harakatlarini o'tkazish, dalilning qonuniyligi** va **olingan usulini o'rganish** orqali tekshiriladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ishda mavjud bo'lgan har qanday dalilni to'liq, xolisona va har tomonlama tekshirishi shart.

Dalillarni baholash ham jinoyat protsessining muhim bosqichlaridan biridir. Bu jarayon sud va tergov organlari tomonidan dalillarni to'plash va tekshirishdan keyin amalga oshiriladi va **qaror qabul qilish uchun asos** bo'ladi.

Dalillarni baholash – dalillarning ish uchun ahamiyati, haqiqiyligi, ishonchliligi va boshqa dalillar bilan bog'liqligini tanqidiy ravishda tahlil qilish jarayoni.

Natija. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasiga ko'ra *“Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.*

Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi.

Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi.

Isbotlanishi kerak bo'lgan barcha va har bir holatning haqiqiyligini so'zsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar to'plangan bo'lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun etarli deb hisoblanadi” [15].

Jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki qaror chiqarish faqat **to'liq, qonuniy** va **ishonchli** dalillar asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi isbot qilishga oid qoidalar tahlil qilinganda quyidagilarni kuzatish mumkin:

isbot qilish bu – ishning qonuniy, asosli va adolatli hal etish hamda ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni **aniqlash**, to'plash va baholashdan iborat (*Armaniston, 124-m.*) [16];

isbot qilish bu – ishning qonuniy, asosli va adolatli hal etishda zarur bo'lgan holatlarni aniqlash uchun dalillarni to'plash, **tadqiq qilish**, baholash va **foydalanish** (*Turkmaniston, 132-m.*) [17];

isbot qilish bu – ishni qonuniy, asosli va adolatli hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, **tadqiq qilish** va baholashdan iboratdir (*Qirg'iziston, 92-m.*) [18];

isbot qilish bu – ishni qonuniy, asosli va adolatli hal etish maqsadida zarur bo'lgan holatlarni aniqlash uchun dalillarni to'plash, **tadqiq qilish**, baholash va **foydalanishdan** iborat (*Qozog'iston, 121-m.*) [19];

isbot qilish bu – jinoyat sudlov ishlarini yuritishda ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash uchun dalillarni to'plash, **taqdim etish**, **tasdiqlash** va ulardan **foydalanishdan** iborat (*Moldova 99-m.*) [20];

isbot qilish bu – jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat (*Ukraina 91-m., Belarus, 102-m., Rossiya, 85-m., Ozarbayjon, 138-m.*) [21].

Tojikiston (*X bob*) va Estoniya (*III bob*) [22] davlatlari JPKlarida isbot qilish alohida bob doirasida tartibga solingan bo'lsada, uning tushunchasi va bosqichlari belgilanmagan.

Xitoy Xalq Respublikasi JPKda isbot qilishning tushunchasi va bosqichlari belgilanmagan, biroq dalillar deb nomlangan V bobning 48-63-moddalarida isbot qilish xususiyatlari qayd etilganligini kuzatish mumkin[23].

Germaniya Federatsiyasi JPKda isbot qilish va uning umumiy shartlariga oid protsessual qoidalar mavjud, jumladan 274-moddasida bayonnomaning isbotlash kuchi, 289-moddasi va 275a-moddasining 3-bandida dalillarning tekshirilishi, 359-moddasida dalil va dalillar majmuining maqbul emas deb topilishiga doir protsessual shartlar belgilangan[24].

Shveysariya JPKning "Shveysariyada jinoyat ishlarini yuritish" deb nomlangan 2-bobida isbot qilish tergov harakatlari bilan birlashtirilgan holda (*6-paragraf. Tergov harakatlari va isbotlash*) tartibga solingan[25].

Yaponiya Jinoyat-protsessual qonunida ham isbot qilish bilan bog'liq protsessual qoidalar qonunning turli bo'lim va boblarida joylashtirilgan[26].

Ushbu o'rganishlarning dalolat berishicha, isbot qilish tushunchasining xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi talqinida qator farqlar borligi ko'zga tashlanadi.

Xususan, Ukraina, Belarus, Rossiya davlatlarining JPKlarida isbot qilishning bosqichlari bizning amaldagi JPKda belgilangani singari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, Tojikiston va Estoniyada isbot qilishning tarkibidagi bosqichlari nimalar ekanligi belgilanmagan.

Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari JPKlarida dalillarning tadqiq etilishi isbot qilishning mustaqil bosqichi sifatida belgilab qo'yilgan. Dalillarni "tadqiq qilish" va "tekshirish" tushunchalarining xorijiy davlatlar JPKdagi o'rni va roli bir xil mazmun kasb etadi.

Qayd etish joizki, Turkmaniston, Moldova va Qozog'iston JPKlarida "dalillardan foydalanish" hamda Armaniston JPKda "dalillarni aniqlash" isbot qilishning alohida bosqichi sifatida belgilanganligi e'tiborlidir.

Isbot qilishning maqsadi jinoyat-protsessual qonunda belgilanmagan bo'lsa-da, uni odil sudlovning vazifasi, prinsiplari, jinoyat ishida isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardan kelib chiqib belgilash mumkin. Shunga ko'ra, jinoyat-protsessida isbotlashning maqsadi bu jinoyat ishining haqiqiy holatlarni, ya'ni isbotlashni talab etadigan holatlar doirasida obyektiv haqiqatni ishonarli tarzda aniqlashdir.

Obyektiv haqiqat – ilmiy tushuncha bo'lib, jinoyat protsessi fanida ishning haqiqiy holatlarini isbotlash jarayonida aniqlanishi zarur bo'lgan holatlarning ishonarli ekanligini tavsiflaydi[28].

Ba'zi adabiyotlarda “isbotlash faoliyati” va “isbotlash” tushunchalari aynan bir xil deb qaraladi. Biroq sud-tergov amaliyotida ularni ajratib turadigan bir qator belgilar mavjud:

birinchidan, isbotlash jarayoni inson faoliyatining, shu jumladan isbotlash faoliyatining bir ko'rinishi hisoblanib, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash borasidagi qonunda tartibga solinadi, hamda ish yurituvining barcha bosqichlarida ularning vazifalariga va ularni amalga oshirish tartibiga mos keladigan protsessual shaklga ega bo'ladi;

ikkinchidan, isbotlashni amalga oshirish uchun jinoyat-protsessual faoliyatda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash vakolatiga ega bo'lgan qonunda belgilangan shaxslar faol bo'ladi. Vaholanki, isbot qilishda, xususan dalillarni to'plashda jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari qatnashadilar (*JPK 86-m. 2-q.*);

uchinchidan, isbotlash jarayoni natijasida dalillar vujudga keladi, jumladan isbotlashda dastlab ish holatlarini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan ma'lumotlar, faktlar yoki vajlar aniqlanadi, ular protsessual tartibda to'planib, tekshirilib va baholanib, vakolatli subyekt tomonidan protsessual shaklda rasmiylashtirilganidan keyin dalillarga aylanadi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, jinoyat protsessida isbot qilish – bu **dalillar yordamida haqiqatni aniqlashga qaratilgan faoliyat**dir. Bu faoliyat natijasida ish uchun muhim bo'lgan holatlar ishonchli tarzda tasdiqlanib, gumon qilinuvchining aybdorligi yoki aybsizligi haqida xulosa qilinadi. Isbot qilish tushunchasini to'g'ri anglash surishtiruvchi, tergovchi va sudyalarga dalillar bilan ishlash jarayonida to'g'ri yo'l tutish, qonuniylik va adolat tamoyillariga rioya etish imkonini beradi. Shu bois, isbot qilish tushunchasi va uning elementlarini puxta o'zlashtirish jinoyat-protsessual huquqining asosiy talablari sirasiga kiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Toychiyev N., (2009). “Isbot qilish”. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: “Adolat” nashriyoti. p. 223.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/111460>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2006. – B. 61.
4. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi: Darslik // B.A. Mirenskiy, A.X. Rahmonqulov, D. Kamalxodjaev, V.V. Kadirova va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B. 119-121.
5. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta'minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Пальчикова Н.В. Теоретические и практические проблемы доказывания в стадии возбуждения уголовного дела: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2013. – С. 12.
6. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta'minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Царева Н.П. Иные документы,

- допускаемые в качестве доказательств по УПК РФ: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Саратов, 2003. – С. 11.
7. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Шелегов Ю.В. Использование косвенных доказательств в уголовном процессе: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2016. – С. 11.
 8. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Корнакова С.В. Логические основы уголовно-процессуального доказывания: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Иркутск, 2008. – С. 10.
 9. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Jinoyat protsessi: O’quv qo’llanma / D.M. Mirazov, I.E. Xojanazarov, Sh.N. Berdiyarov. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – B. 99.
 10. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida”gi 24-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3895986>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 11. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/111460>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 12. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida”gi 24-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3895986>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 13. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/111460>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6041-son farmoni // <https://www.lex.uz/docs/4939467>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 15. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/111460>. Elektron manbaga qaralgan vaqt: 10.07.2025-yil.
 16. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения от 1 сентября 1998 года. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spininform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
 17. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана от 18 апреля 2009 года. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spininform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
 18. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 2 февраля 2017 года [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spininform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
 19. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года [Электронный ресурс]. Режим

- доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
20. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
21. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года, Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года, Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
22. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года, Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии от 12 февраля 2003 года [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 17.07.2025).
23. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil. Уголовно-процессуальный кодекс Китайской Народной Республики (с изменениями, внесенными Решением Постоянного комитета Всекитайского собрания народных представителей от 14.03.2012 г. «О внесении изменений в Уголовно-процессуальный кодекс Китайской Народной Республики») [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://wipolex.wipo.int/ru/text/337074> (дата обращения: 17.07.2025).
24. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T-2019-yil. Уголовно-процессуальный кодекс Германии // [http://pravo.org.ua/files/\(1\).pdf](http://pravo.org.ua/files/(1).pdf). [Электронный ресурс] (дата обращения: 17.07.2025).
25. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный кодекс Швейцарии от 5 октября 2007 г [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://wipolex.wipo.int/ru/legislation/details/15255> (дата обращения: 17.07.2025).
26. Rajabov.B.A “Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash” doktorlik dissertatsiyasi. T 2019-yil . Уголовно-процессуальный закон Японии (10 июля 1972 г., Закон № 131. Окончательная поправка от 27 апреля 2010 г., Закон № 26) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://wipolex.wipo.int/ru/text/187786/> (дата обращения: 17.07.2025).
27. Шелегов Ю.В. Использование косвенных доказательств в уголовном процессе: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2016. – С. 11.
28. Скребец Г.Г. Участие адвоката-защитника в формировании доказательств на стадии предварительного расследования: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Екатеринбург, 2008. – С. 5.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).